
TAYINLOV



Pirmatov Mirzoanvar Yusupovich Qo'shtepa tumani Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i o'rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlandi.

Mirzoanvar Pirmatov 1986 yili Qo'shtepa tumanida tug'ilgan. 2008 yilda Farg'ona politexnika institutini, 2020 yilda Farg'ona davlat universitetini tamomlagan.

Mehnat faoliyatini 2013 yili Marg'ilon shahar "Ziyo kapital ta'mir" xususiy korxonasida boshlagan. Faoliyati davomida 2014 yildan 2019 yilgacha Savdo-sanoat palatasi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasida turli lavozimlarda ishlagan. Shuningdek, Farg'ona shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazi Jamoat ishlari bo'yicha yordamchi inspektori, Farg'ona shahar "Farg'ona Dizayn" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari hamda Qo'shtepa tumani Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi yetakchi mutaxassisi lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Oilali, turmush o'rtog'i - Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamshira, uch nafar farzandi bor.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-02-15 08:49:50